



YOSH AVLODNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Turdiyeva Sh.A.

Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Toshlanova M.

Andijon davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.

Tayanch so'zlar: oila, oilaviy hayot, ma'naviy, o'smir, o'quvchi, ijtimoiy maqom, psixologik moslashuv, iqtisodiy, madaniy, vaziyatli rolli moslashuv.

Ключевые слова: семья, семейная жизнь, духовная, подростковая, студенческая, социальный статус, психологическая адаптация, экономическая, культурная, ситуативно-ролевая адаптация.

Key words: family, family life, spiritual, adolescent, student, social status, psychological adaptation, economic, cultural, situational role adaptation.

Резюме:

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni murakkab, serqirra va uzluksiz bo'lib, ularning kelgusi oilaviy hayotga to'laqonli tayyor bo'lishi uchun eng muhim talablarni, insoniy xislatlarni shakllantirish muhim va zarurdir. Mazkur maqolada muallif aynan o'quvchi yoshlarni bolalik davridan ayniqsa o'smirlik davridan ularni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlash kerak ekanligi haqida fikr yuritgan. Zero, hozirgi davirda oilalarning buzilishi, bolalarning ota yoki ona mehridan erta judo bo'lishining asosiy sabablari ham oila qurish va o'z tengini tanlashda savodxonlikning etishmasligi, xulq-odob hamda oilaviy munosabatlar me'yorlariga rioya etmaslik, oila xo'jaligini yuritishda uquvsizlik, ma'naviy qashshoqlikning natijasi ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Резюме:

Процесс подготовки молодого поколения к семейной жизни сложный, увлекательный и непрерывный, и важно и необходимо сформировать у них важнейшие требования и человеческие качества, чтобы они были полностью готовы к будущей семейной жизни. В данной статье автор задумался о том, что готовит младших школьников к семейной жизни необходимо с детства, особенно с подросткового возраста. Вед он пытался показать, что основными причинами распада семей, раннего отрыва детей от любви отца или матери являются неграмотность в создании семьи и выборе партнера, несоблюдение норм поведения и семейные отношения, необразованность в ведении семьи и духовная нищета.

Summary:

The process of preparing the young generation for family life is complex, exciting and continuous, and it is important and necessary to form the most important requirements and human qualities for them to be fully ready for the future family life. In this article, the author thought about the fact that it is necessary to prepare young students spiritually for family life from childhood, especially from adolescence. After all, he tried to show that the main reasons for the breakdown of families, the



early separation of children from the love of a father or mother are the lack of literacy in starting a family and choosing one's partner, not observing the norms of behavior and family relations, lack of education in managing a family, and spiritual poverty.

Yosh avlodni oila va oilaviy hayotga tayyorlash masalalari hamma davrlarda ham eng muhim muammolardan sanalib kelingan. Bu muammo jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar amalga oshirilayotgan, yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda, ayniqsa, dolzarflik kasb etmoqda. Chunki ana shunday olamshumul voqealarga boy davrda oilaviy munosabatlarda uning har bir a'zosidan yuqori darajadagi ma'naviy madaniyatga ega bo'lish talab etiladi. Buni shakllantirishni esa bolalikdan, ayniqsa, ularning o'smir yoshidan boshlash maqsadga muvofiq.

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni murakkab, serqirra va uzluksiz bo'lib, ularning kelgusi oilaviy hayotga to'laqonli tayyor bo'lishi uchun eng muhim talablarni, insoniy xislatlarni shakllantirish muhim va zarurdir. Zero, hozirgi davrda oilalarning buzilishi, bolalarning ota yoki ona mehridan erta judo bo'lishining asosiy sabablari ham oila qurish va o'z tengini tanlashda savodxonlikning etishmasligi, xulq-odob hamda oilaviy munosabatlar me'yorlariga rioya etmaslik, oila xo'jaligini yuritishda uquvsizlik, ma'naviy qashshoqlik va tekinxo'rlikdir.

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash asosan, ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. Ota-onalar tomonidan, oila muhitida.
2. O'qituvchilar tomonidan, ta'lim muassasalarida.

Bu har ikki yo'nalishning yana o'ziga xos tomonlari, shahobchalari ham bo'lib, ular mahalla, jamoatchilik, maktabdan tashqari muassasalar va hokazolar hisoblanadi. Bularning barchasi bir umumiy maqsad – yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda bir umumiy zanjirni tashkil etadi. Ushbu ishda, asosan maktabda, o'smir yoshida bevosita o'quvchilarni, oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlash yo'nalishi o'ta muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti biz tarbiyalayotgan yosh avlodga bog'liq ekan, ikkinchi tomondan ana shu jamiyatning ma'naviy va moddiy boyliklarini yaratuvchi asos ham oiladir.

Ilmiy adabiyotlarda faylasuf, psixolog, pedagog, sotsiolog tadqiqotchilarning ta'rifiga ko'ra (A.Q.Minavvarov, O.Musurmonova, M.Inomova, G'.B.Shoumarov, V.Karimova v.b.) oila – kishilarning tabiiy, iqtisodiy, xuquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy guruhdir. Oilaning barcha a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlar



o‘zaro turmushi, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, psixologik jihatdan bir-biri bilan munosabatda bo‘ladi.

Oila – jamiyat asosi ekan, u ana shu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda tabiiy munosabatlarga er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, farzand ko‘rish; iqtisodiy munosabatlariga oilani boshqarish, mulkni taqsimlash v.h., ma‘naviy munosabatlarga oila a‘zolari o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar kiradi. Lekin har bir oila jamiyat tarkibida yashar ekan, jamiyatdagi o‘zgarishlar bevosita oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, ma‘naviy hayotiga ta‘sir etib, uning darajasi ham o‘zgarib boradi.

Xaqiqatan ham, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida: “Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat-ahillikni ta‘minlash – milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi” deyilishi bejiz emas.

Chunki oilada har tomonlama kamol topgan barkamol shaxs shakllanadi. Shaxs shakllanishiga esa oilaning ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma‘naviy darajasi katta ta‘sir etadi. Buning uchun avvalo har bir oilaning mustahkamligini ta‘minlovchi turli umumiy jihatlari bilan birga o‘ziga xos hususiyatlarni ham hisobga olmoq zarur.

Barcha tadqiqotchilar oila mustahkamligi va barqororligini ta‘minlashning turli jihatlari bo‘lib, har bir oila ana shu jihatlarning o‘zaro birligida rivojlanadi, barqaror bo‘ladi, deydi. Bular:

1. Oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta‘minlash.
2. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish.
3. Oilaning huquqiy savodxonligini oshirish.
4. Fiziologik-gigienik yordam.
5. Oilaning pedagogik ta‘minoti.
6. Oilani estetik boyitish.
7. Xo‘jalik-iqtisodiy ahvolini yaxshilash.
8. Oilani ma‘naviy-axloqiy shakllantirish.

Bu jihatlar, ayniqsa jamiyatimizda tub islohatlar o‘tkazilayotgan, yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi sharoitda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mustaqillikka erishgunimizga qadar milliy ma‘naviyatimizning ildizlariga berilgan zarbaning oilalarga ta‘siri natijasida ma‘naviy qashshoqlashishning paydo bo‘lishi bugungi kunda milliy istiqlol g‘oyalari, ularga oid ilk tushunchalarni oila muhitiga singdirish, har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta‘minlashni talab etmoqda.

Bu esa oilalarni ijtimoiy hayotga uyg‘unlashtirish muammosini muhim etib qo‘ymokda. Chunki aynan oila shaxsni shakllantirishga faol ta‘sir etadigan

ijtimoiy guruhdir. Zero, oilada tabiiy-biologik va ijtimoiy aloqalar o'zaro bog'lanib ketib, bu aloqalar bolalarning go'daklik davridayoq ruhiy rivojlanishi hususiyatlarini hamda dastlabki ijtimoiylashuvini aniqlash bilan muhim xisoblanadi.

Oila ijtimoiy ta'sirning muhim jihatlaridan bo'lib, aniq bir mikromuhit sifatida bola rivojlanishining jismoniy, ruhiy, ijtimoiy tomonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bunda oila bolani ijtimoiy hayotda ishtirok etishga tayyorlar ekan, bu jarayonda bolaning hayotga kirib kelishi, uning tabiat bilan u yashab hayot kechirayotgan jamiyat madaniyati, ma'naviyati bilan uyg'un kechishiga erishish muhim.

Demak, ota-onaning eng muhim vazifasi ham bolani insoniyat tomonidan yaratilgan, u yashab kelayotgan jamiyat madaniyati, uning axloq me'yorlari, xalq an'analari tajribalarini o'rganishga yo'naltirishdan iboratdir.

Oila muammolaridan eng muhimi uning jamiyatga moslashuvidir. Bu jarayon oilaning tuzilmasi va oila a'zolarining o'ziga xos hususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu tuzilma:

- nikohning mavjudligi: nikohda, rasman nikohda yoki to'liq bo'lmagan nikoh;

- oilaviy hayot bosqichlari (yosh, etuk, keksa oila);
- nikoh soni (birinchi, ikkinchi v.h. nikoh);
- oilada avlodlar soni (bir yoki bir necha avlod);
- bolalar soni (kam bolali, serfarzand oila) v.h.

Oila a'zolarining o'ziga xos hususiyatlari uning tuzilmasi va talablari bilan birgalikda oila maqomini belgilaydi. Oila maqomini tadqiqotchilar to'rt turkumga bo'ladilar. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv, ikkinchisi ijtimoiy-psixologik moslashuv, uchinchisi ijtimoiy-madaniy hamda to'rtinchisi vaziyatli-rolli moslashuv v.h. Buni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi. Oilaning jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi deganda oilaning moddiy ahvolini belgilaydigan hamda uning kirimi darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganligi, jihozlari, oila a'zolarining ahvoli tushuniladi. Agar bularning barchasi oilani ta'minlamasa, bunday oilalar oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy harajatida qiynalib yashaydi va ijtimoiy-moddiy jihatdan past darajadagi oila sanaladi.

Agar oilaning moddiy ahvoli eng kam darajada ijtimoiy me'yorlar talablariga javob bersa, bunday oilalar kam ta'minlangan oila bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy darajasi o'rtacha bo'ladi.



Serdaromad va uy-joy bilan ta'minlangan oilalar esa yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'ladi. Oilaning ijtimoiy moslashuvida muhim bo'lgan jihatlaridan yana biri oiladagi psixologik muhitdir.

Bunga oila a'zolarining kayfiyati, ularning his-tuyg'ulari, bir-biriga va boshqalarga, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqea-xodisalarga munosabati kiradi va bularning barchasi er-xotin, ota-ona va bolalar, ularning yaqin odamlari bilan munosabatga kirishishlari bilan belgilanadi.

Oila psixologik muhitning qay darajada yuqori yoki pastligi oila a'zolarining his-tuyg'ulari, o'zaro bir-birini tushunishi, hurmat qilishi, yordam berishi, g'amho'rliqi va bo'sh vaqtini qanday tarzda o'tkazishi, ochiq-ko'ngilligi bilan belgilanadi.

Agar oila a'zolari hamkorlikda yashab, o'zaro bir-birini hurmat qilish asosida qurilgan bo'lsa, his-tuyg'ulari yaqin va bu munosabatlardan har bir oila a'zosi qanoat hosil qilsa, bunday oilaning ijtimoiy-psixologik maqomi yuqori bo'ladi va bu oilalar sog'lom oilaga kiradi.

Agar oilada oilaviy munosabatlarda ziddiyatlar yoki ba'zi qiyinchiliklar bo'lib, uning asosida oila a'zolari doimiy ravishda tashvishli hayot kechirsa, bunday oila nosog'lom bo'lib, ijtimoiy-psixologik maqomi past darajada bo'ladi. Agar oiladagi nosog'lom muhitning oldi olinmasa, oila inqirozga yuz tutishi va natijasi ajralish, bolalarning oiladan, ota-onadan bezish holatlari yuz berishi mumkin.

Yuqoridagi nosog'lom psixologik muhitda ham oila a'zolarining bir qismi chidam bilan bardosh berib, uning surunkali davom etishining oldini olishga harakat qilib borsa, bunday holatda oilaning ijtimoiy-psixologik maqomi o'rtacha bo'ladi.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi tuzilmasining uchinchi turi – bu ijtimoiy-madaniy moslashuvidir. Bunda oila a'zolarining ma'lumoti, turmush tarzi va xulqi bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir etish jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega.

Agar oilada oila qadriyatlari, an'ana va odatlarini saqlagan holda uni kelgusi avlodlarga etkazishga harakat qilinib, bolalarning qiziqishlari va ma'naviy talablarini hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini yuritib, bo'sh vaqtni hilma-xil va qiziqarli tashkil eta olsa hamda bolalarning estetik, jismoniy, ruhiy, mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq amalga oshirilsa, bunday oilalarning madaniy darajasi yuqori bo'ladi.

Agar oilaning ma'naviy talablari rivojlangan, qiziqishlari chegaralangan, turmushi to'g'ri tashkil etilmagan, oilani birlashtiradigan madaniy-ma'rifiy, mehnati, bo'sh vaqtini tashkil etishga doir faoliyati yo'q darajada bo'lsa

va tarbiya zo‘rama-zo‘rakilikka asoslangan bo‘lsa va oila axloqsiz hamda nosog‘lom hayot kechirsa, bunday oilaning ijtimoiy-madaniy darajasi past sanaladi.

Oilaning ijtimoiy moslashuvining to‘rtinchi turi bu vaziyatli rolli moslashuvi bo‘lib, bu bolaning oilaga munosabati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola muammolarini hal etishda yuqori darajali madaniyat hamda faollikni namoyon etish – vaziyatli-rolli maqomning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Agar vaziyatli-rolli moslashuvda bolaga nisbatan e‘tibor berilsa, bunday oila o‘rtacha sanaladi; agar bolalar muammolari e‘tiborga olinmay, unga nisbatan salbiy munosabat kuchli bo‘lsa, bunday oilalarning vaziyatli-rolli maqomi past darajada bo‘ladi.

Har bir oilaning ijtimoiy maqomi uning huquqiy, fizilogik-gigienik, pedagogik, estetik, ma‘naviy-axloqiy jihatlar bilan ham bog‘lanib ketadi. Ayniqsa, oilada huquqiy tarbiya pedagogika sohasida ham yangi bo‘lib, oila tarbiyasida nazardan chetda qolmoqda. Aynan oilada, o‘smir yoshida bolalarda huquqiy bilimning etishmasligi juda ko‘p salbiy holatlarga olib kelmoqda. Mas‘uliyatni his etmaslik, ijtimoiy hayotda qonun ustuvorligini tushunmaslik yoki qonunlardan faqat o‘z manfaati nuqtai nazarida foydalanish shular jumlasidandir. Buning asosiy sabablari oilada ota-onalar, maktabda o‘qituvchilarning xuquqiy me‘yorlarni o‘quvchi ongiga singdirmasligi, qonun oldida hammaning bab-baravar javobgar ekanligi, shaxsning qonun oldida javobgarligi va qonunlarning dahlsizligi masalalarining etarli darajada etkazilmasligidir.

Ma‘lumki, huquqiy tarbiya intizomlilikni tarbiyalashdan, bolaning o‘z xatti-harakatlari uchun javob berishi kerakligini tushunishdan boshlanadi. Qolaversa, jinoiy, ma‘muriy, mehnat, oilaviy huquq va burchlarni ham bilishini taqozo etadi. Demak, har bir o‘smirning kelgusi oilaviy hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlashda huquq va burchlarini bilishi shu oilaning tayanchi bo‘lgan mustaqil, huquqiy, demokratik davlat qurishning asosiy omili ekanligini tushunishga yo‘llaydi.

O‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashda gigienik-fiziologik tarbiya ham o‘ta muhimdir. Ma‘lumki, tarbiyaning bu muhim jihatiga ko‘p ham e‘tibor berilmay oilaga moddiy-iqtisodiy tomondan tayyorlash bilangina cheklanib qoladi. Vaholanki, oilaviy hayotga qadam qo‘yar ekan, ko‘p yoshlarning oilanikoh masalalarida savodsizligi, to‘liq bo‘lmagan oilalarning mavjudligi juda ko‘p ota-onalarning oilada jinsiy tarbiyani olib borishga tayyor emasligi, o‘zini bo‘lg‘usi oila boshlig‘i yoki bekasi o‘rniga qo‘yib ko‘ra olmasligi, oilada va maktabda fiziologik-gigienik va jinsiy tarbiyani ham muhim etib qo‘ymoqda.

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalash



oilaviy tarbiyaning muhim tomonlaridan biridir. Buning samarali yo'llari, mazmuni, shakl va metodlari, vositalarini izlab topish va yangicha yondashish muhim pedagogik muammodir. "Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi". Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik madaniyati, ya'ni ota-onalar bolalarni tarbiyalashda ijtimoiy, psixologik, fiziologik bilimlarni egallashi bilan birga o'z bilimini qo'llashda samarali metod, vosita, usullar, pedagogik faoliyat natijalari haqidagi bilimlarning malaka va ko'nikmalarga aylanish zarurati paydo bo'ladi. Lekin keyingi o'n yillarda faqat ota-onalarni emas, balki o'quvchilarni ham ilk bolalik yillaridan oilaviy hayotga tayyorlash muammosi kun tartibiga qo'yildi. Chunki bolalar ota-onalarini kuzata borib, oila a'zolariga pedagogik ta'sir etishning juda ko'p usullarini egallab oladi va ulg'ayganda buni o'z bolalari tarbiyasida qo'llaydi. Shuningdek, bu tarbiya usullariga o'z tajribalaridan kelib chiqib, ijodiy yondashadilar. Shuning uchun ham faqat ota-onalarni emas, barcha maktab o'quvchilarini ham oilaviy hayotga tayyorlash, ularni pedagogik bilim bilan qurollantirish muhim va zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Alimova J. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni. xalq ta'limi. J. - T.: 2001
2. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashridan tarjima. - T.: O'qituvchi, 1988.
3. Vohidov M. Bola shaxsi va uning shakllanishi. - T.: O'qituvchi, 1972.
4. Minavarov A.Q. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 1994.
5. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur: O'quv qo'llanma. - T.: O'qituvchi, 1999.
6. Musurmonov O., M.Qarshiboev. Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari. 9-sinf. – T.: ma'naviyat. 2001.
7. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990.
8. Uzoqov X., G'oziev E., Oripova A. Oila axloqi va odobi. - T.: O'qituvchi, 1995.
9. Qurbonov T. Odobnoma. - T.: O'qituvchi, 1991.